XALQ DEPUTATLARI YANGIBOZOR TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-4-039-12-178-K/24 Yangibozor tumani

Yangibozor tumanining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1011-son qonuniga va xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-4-029-12-0-K/24-sonli qaroriga muvofiq hamda Xorazm viloyati hokimligining 2024-yil 26-dekabrdagi 02-7-09/12558-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi qonuni hamda xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-4-029-12-0-K/24-sonli qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qonunga muvofiq Yangibozor tumani mahalliy budjetining 2025-yilgi daromadlari 76 006 832 ming.so‘m va xarajatlari 99 329 994 ming.so‘mni tashkil qilgani ma’lumot uchun qabul qilinganligi inobatga olinsin.

3. Quyidagilar:

tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga;

tumanning tuman budjetidan 2025-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga;

tuman mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar, shuningdek, soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan normativlari 3-ilovaga;

tuman mahalliy budjetining 2025-yil daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi 4-ilovaga;

2025-yil uchun viloyat budjetidan tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 5-ilovaga;

tumanning tuman budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining 2025-yilda yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 6-ilovaga muvofiq muvofiq tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Tumanning tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025-yil uchun 1 140 288 ming.so‘m miqdorida belgilansin. Bunda:

tuman mahalliy budjetlarining 2025-yil uchun zaxira jamg‘armalari tasdiqlangan umumiy xarajatlarining (bundan jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish mablag‘lari mustasno) kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin;

tuman budjetining zaxira jamg‘armalari mablag‘larini amaldagi Budjet kodeksining 73-moddasiga muvofiq budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilishi ta’minlansin.

5. Tuman hokimligi, mas’ul idora va tashkilotlar 2025-yil uchun ajratilayotgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish, budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish, tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash hamda budjet daromadlari bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash choralarini ko‘rsin.

6. Tuman soliq inspeksiyasi (X.Kazakov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlardan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishi hamda ushbu soliqlarning o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini o‘rnatish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarning to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya’ni xatlov ishlarini samarali va muntazam tashkil etib borish ishlarini amalga oshirsin.

7. Majburiy ijro byurosi tuman bo‘limi (G‘.Madrimov) tuman soliq inspeksiyasi (X.Kazakov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

8. Tuman suv yetkazib berish xizmati DM (A.Sapayev) va tuman soliq inspeksiyasi (X.Kazakov) tuman hokimligi bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishi hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to‘liq undirishini ta’minlasinlar.

Bunda, qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

9. Xalq deputatlari tuman Kengashi, tuman hokimligi O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksining 27 va 28-moddalarida belgilangan budjet sohasidagi vakolatlaridan

kelib chiqib, budjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga tushumlar to‘liq va o‘z vaqtida tushishi hamda budjet mablag‘larining maqsadli sarflanishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

10. Tuman budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har yili 25-yanvar kuniga qadar budjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan yillik faoliyati to‘g‘risida mahalliy Kengashlarga hisobot berib borsin.

Bunda, hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

o‘z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat olib borishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarning to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlar joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

11. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari – matbuot kotibi, axborot siyosati masalalari bo‘yicha hokim maslahatchisi (U.Nurmetova)ga tuman soliq inspeksiyasi (X.Kazakov) va tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (J.Xalmetov) bilan birgalikda tuman ommaviy axborot vositalarida, hokimlik muassisligidagi gazetalarda qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarning e’lon qilinishi hamda hokimlikning rasmiy veb-saytlariga joylashtirilishini tashkil etish tavsiya etilsin.

12. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

13. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (A.Atajanov) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi JUMANIYAZOV RUSLAN RUSTAMOVICH

Xalq deputatlari Yangibozor tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-039-12-178-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Yangibozor tumani mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami
JAMI		**76 006 832,0**
1	Aylanmadan olinadigan soliq	8 475 000,0
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	33 792 000,0
3	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	442 000,0
4	Aksiz solig‘i jami	6 079 000,0
	Shu jumladan	
	benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	6 079 000,0
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 450 000,0
6	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	5 050 832,0
7	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	7 506 000,0
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	6 559 000,0
9	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	56 000,0
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 400 000,0
11	Qishloq xo‘jaligi korxonalarining suv solig‘i	3 081 000,0
12	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	116 000,0

Xalq deputatlari Yangibozor tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-039-12-178-K/24 -son qaroriga
2-ilova

"2025-yil uchun Yangibozor tumanining mahalliy byudjetidan mablag‘ oluvchilariga

ming so‘m

T/r	Tuman budjetidan mablag‘ oluvchilar nomi	Cheklangan miqdor
Xarajatlar miqdori, jami		**99 329 944**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**99 329 944**
1	**Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi**	**31 473 470**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**31 473 470**
	shundan:	
	Maktabgacha ta’lim tashkilotlari	17 095 050
	Umumiy o‘rta ta’lim maktablari	6 830 900
	Bakamol avlod dolalar maktabi	1 378 933
	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	3 004 930
	Bolalar musiqa maktabi	3 163 657
2	**Madaniyat bo‘limi**	**2 184 272**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**2 184 272**
	shundan:	
	Axborot kutubxona markazi	**625 007**
	Madaniyat bo‘limi	**1 559 265**
3	**Sport bo‘limi**	**6 175 147**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**6 175 147**
4	**Yoshlar ishlari agentligi bo‘limi**	**3 360 478**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**3 360 478**
5	**Fermerlar buxgaltenriyasini saqlash xarajatlari**	**316 172**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**316 172**
6	**Veterinariya qo‘mitasi**	**515 666**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**515 666**

7	**Irrigatsiya bo‘limi**	**1 212 493**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 212 493**
8	**Iqtisodiyot va moliya bo‘limi**	**2 229 456**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**2 229 456**
9	**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi**	**1 752 464**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 752 464**
10	**"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari**	**810 000**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**810 000**
11	**Hokimlik**	**33 894 059**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**33 894 059**
	shundan:	
	Tuman hokimligi	2 574 154
	Xalq qabulxonasi	38 389
	Zaxira jamg‘armasi	1 140 288
	Xalq deputatlari Kengashi kotibiyatini saqlash xarajatlari	247 155
	Xokim yordamchilari	3 312 226
	Tashabbusli budjet (mening maktabim)	1 986 530
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	21 123 567
	Veterinariya bo‘limi	1 985 903
	Oila va xotin-qizlar bo‘limi	1 338 217
	Madaniyat bo‘limi	147 630
12	**Hokimlik (Obodonlashtirish bo‘limi)**	**15 295 093**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**15 295 093**
13	**Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”**	**11 550**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**11 550**
14	**Ijtimoiy ko‘nikma markazlari**	**99 624**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**99 624**

Xalq deputatlari Yangibozor tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-039-12-178-K/24 -son qaroriga
3-ilova

Umumdavlat soliqlaridan Yangibozor tuman mahalliy byudjetiga ajratmalar me’yori

№	Tuman nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig ‘i	Aylanmadan olinadigan soliq	benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Qishloq xo‘jaligi korxonalarining suv solig‘i	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i
1	Yangibozor tumani	100%	100 %	100%	100%	100%	100 %	100%	100%	100%	100%	100%	100%

Xalq deputatlari Yangibozor tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-039-12-178-K/24 -son qaroriga
4-ilova

Mahalliy byudjetning 2025-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Hudud nomi	**Daromad***	**Xarajat**
Yangibozor tumani	76 006 832,0	99 329 944,0

Xalq deputatlari Yangibozor tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-039-12-178-K/24 -son qaroriga
5-ilova

Yangibozor tumani tuman mahalliy budjetiga 2025-yilgi yuqori budjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

T/r	**Shahar va tumanlar**	**Tartibga soluvchi transfert miqdori**	***shundan, aksz solig‘i tushumlari hisobidan ajratilgan mablag‘lar****
1	Yangibozor tumani	23 323 112,0	0,0

Xalq deputatlari Yangibozor tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-039-12-178-K/24 -son qaroriga
6-ilova

Yangibozor tumani mahalliy budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	**Hudud nomi**	**Miqdor**
1	Yangibozor tumani	588 000,0